



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG'I

2025_yil "31-yanvar"

№ 32

Toshkent sh.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi davolash-profilaktika muassasalari, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining doimiy faoliyatdagi Hay'atlari faoliyatini yanada takomillashtirish choralari to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi 2016-yil 4-yanvardagi O'RQ-399-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 7-dekabrda PF-5590-son Farmoni ijrosini ta'minlash hamda Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi davolash-profilaktika muassasalari, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining dori va sarflov vositalari, tibbiy buyumlar, reagent va dezinfektsiyalovchi vositalarga bo'lgan ehtiyojini aniqlash, xarid qilishga taklif berish, taqsimlash, saqlash, ishlatish va ulardan samarali foydalanishni takomillashtirish hamda nojo'ya ta'siri bo'yicha nazoratni yanada kuchaytirish maqsadida, **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi qoshidagi Doimiy faoliyatdagi Hay'at to'g'risidagi nizom 1-ilovaga;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmalari va ularning tasarrufidagi davolash-profilaktika muassasalari, Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari va ularning hududiy filiallari, Respublika darajasidagi tibbiyot muassasalari, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi va uning hududiy boshqarma (bo'lim)lari Doimiy faoliyatdagi Hay'ati to'g'risidagi nizom 2-ilovaga;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi qoshidagi Doimiy faoliyatdagi Hay'at tarkibini 3-ilovlarga muvofiq tasdiqlansin.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmalari va ularning tasarrufidagi davolash-profilaktika muassasalari, Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari va ularning hududiy filiallari, Respublika miqyosidagi tibbiyot muassasalari, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi va uning hududiy boshqarma (bo'lim)lari rahbarlariga:

10 kun muddatda: "Doimiy faoliyatdagi hay'at" faoliyatini mazkur buyruqning 2-3-ilovalaridagi nizom va tarkibga muvofiq tashkil etsin;

Doimiy faoliyatdagi hay'at tomonidan joriy yilning ish rejasida tasdiqlangan formularlarga muvofiq dori vositalari, tibbiy buyumlar va reagentlarga bo'lgan yillik ehtiyojni hamda Davlat dasturlari doirasida xarid qilinadigan dori vositalar, tibbiy buyumlar, sarflov vositalari, reagent, etalon shtammlar va dezinfeksiyalovchi vositalarga bo'lgan yig'ma ehtiyojni Sog'liqni saqlash vazirligining DFH yig'ilishida tasdiqlash uchun vazirlikning "Dori vositalarining ehtiyojini aniqlash bo'limi"ga (keyingi yil uchun 2025-yildan boshlab 1-iyulga qadar) taqdim etsin.

3. Sog'liqni saqlash vazirligining Doimiy faoliyatdagi Hay'ati kotibi Doimiy faoliyatdagi Hay'at qarorlarini Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmalari, respublika miqyosidagi barcha davolash-profilaktika muassasalari, ixtisoslashtirilgan ilmiy amaliy tibbiyot markazlari, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi va uning hududiy boshqarma (bo'lim)lari rahbarlariga o'z vaqtida yetkazilishini ta'minlasin.

4. Dori vositalaring ehtiyojini aniqlash bo'limi:

uch oy muddatda dori vositalari va tibbiy buyumlarning ehtiyojini aniqlash tartibini tasdiqlasin.

DFH faoliyatini tashkillashtirishda Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi davolash-profilaktika muassasalari va Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi tizimidagi muassasalariga amaliy-uslubiy yordam ko'rsatilishini ta'minlasin.

5. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 2019-yil 25-yanvardagi 30-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur buyruq ijrosining nazorati vazirning birinchi o'rinbosari v.b. D.Sultanov zimmasiga yuklansin.

Vazir



A. Xudayarov

**O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi qoshidagi
Doimiy faoliyatdagi Hay'at to'g'risida
N I Z O M**

I. Umumiy qoidalar

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligida tashkil etiladigan Doimiy faoliyatdagi Hay'at (keyingi o'rinlarda — Hay'at) faoliyatini belgilaydi.

Doimiy faoliyatdagi hay'at (DFH) — O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i bilan tuziladigan, dori vositalari va tibbiy buyumlarni xarid qilish, qabul qilish, tarqatish, ulardan klinik protokollar, diagnostika va davolash standartlari asosida samarali foydalanish hamda hisob-kitobini yuritish jarayonini o'rnatilgan tartibda muntazam nazorat qiluvchi maxsus Hay'at.

1. Hay'at quyidagi maqsadda tashkil etiladi:

dori vositalari va tibbiy buyumlarni xarid qilishga taklif ishlab chiqish, qabul qilish, tarqatish, ulardan klinik protokollar, diagnostika va davolash standartlari asosida samarali foydalanish hamda hisob-kitobini yuritish jarayonini o'rnatilgan tartibda muntazam ravishda nazorat qilish;

Aholini arzon va sifatli dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlash bo'yicha;

davolash-profilaktika muassasasida qo'llaniladigan dori vositalari va tibbiy buyumlarning harakati, diagnostika va davolash standartlari hamda klinik protokollarga muvofiq maqsadli ishlatilishi hamda dori vositalarining nojo'ya ta'sirini amaldagi me'yoriy hujjatlar talablariga rioya etgan holda muntazam nazorat qilish, mavjud muammo-kamchiliklarni joyida bartaraf yetish, kamchiliklarga yo'l qo'yan xodimlarga qonunda belgilangan tartibda tegishli intizomiy choralar ko'rish yuzasidan rahbariyatga taklif taqdim etish.

2. Hay'at har chorakda tasdiqlangan rejaga muvofiq davolash-profilaktika muassasalarida dori vositalari va tibbiy buyumlarning saqlanishi, hisobga olinishi va ulardan samarali foydalanish holatini tekshiradi va xay'at yig'ilishida muxokama qiladi.

3. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi qoshidagi Hay'at vazirning birinchi o'rinbosari rahbarligida ish olib boradi.

4. Hay'at o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining buyruqlari va ko'rsatmalariga, hamda mazkur Nizomga muvofiq amalga oshiradi.

5. Hay'at tarkibi Sog'liqni saqlash vazirligining departament, boshqarma va bo'lim boshliqlari, Sog'liqni saqlash vazirligining bosh mutaxassis va konsultantlaridan tashkil

topadi. Sog'liqni saqlash vazirining buyrug'iga asosan hay'at a'zolari tarkibi o'zgartirilishi, hay'atning faoliyati tugatilishi yoki qayta tuzilishi mumkin.

6. Hay'atning qarorlari hay'at raisi tomonidan tasdiqlanadi.

7. Sog'liqni saqlash vazirligining hududiy boshqarmalaridagi Hay'at raisi va a'zolari Sog'liqni saqlash vazirligi markaziy apparatining tegishli boshqarma va bo'limlari bilan hamkorlikda ish olib boradi.

II. Hay'atning asosiy vazifalari

8. Hay'at quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

Sog'liqni saqlash vazirligi qoshidagi Hay'at a'zolari tomonidan respublika bo'yicha kasallik turlari, bemorlarning soni, davolash-profilaktika muassasalarida (keyingi o'rinlarda — DPM) davolangan bemorlar soni, ambulator qatnovlar va demografik holatni hisobga olgan holda belgilangan tartibda dori vositalari, tibbiy buyumlar, reaktivlar, etalon shtammlar va sarflov vositalariga ehtiyojini o'rganadi, aniqlaydi va taqsimot qiladi;

Sog'liqni saqlash vazirligi bosh mutaxassislari, konsultantlarini jalb qilgan holda DPM tomonidan shakllantirilgan yillik ehtiyojni tahlil qiladi;

dori vositalari, tibbiy buyumlar, reagentlar, etalon shtammlar va sarflov vositalarini markazlashgan holda xarid uchun taklif beradi;

ta'minot manbasidan qat'iy nazar, keltirilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar, reaktiv, etalon shtammlar va sarflov vositalarini DPMLariga taqsimot va qayta taqsimot qiladi;

aholi va tibbiyot muassasalarini sifatli va arzon dori vositalari hamda tibbiy buyumlar bilan ta'minlanganlik darajasini o'rganadi;

davolash-profilaktika muassasalarida dori vositalari hamda tibbiy buyumlarga bo'lgan yillik va oylik haqiqiy ehtiyojni hisoblab chiqish va tasdiqlash, ehtiyoj asosida xarid qilishga taklif berish, taqsimlash hamda qo'llashni nazorat qiladi;

muassasa uchun soha yo'nalishiga muvofiq dori vositalari va tibbiy buyumlarning yillik xaridi uchun belgilanadigan moliyalashtirish miqdorini haqiqiy ehtiyoj asosida belgilanishida o'zining asosli takliflarini beradi;

belgilangan me'yoriy xujjatlar bo'yicha dori vositalarini xarid qilish uchun ajratilgan byudjet mablag'laridan oqilona foydalanish holatini o'rganadi;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan diagnostika va davolash standartlari hamda klinik protokollarda nazarda tutilmagan dori vositalarining qo'llanilishini oldini olish choralarini ko'radi;

birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida oilaviy shifokorlar tomonidan rasmiylashtirilgan elektron retseptlar asosiligi va haqqoniyligi bo'yicha reja asosida monitoring olib boradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmalari va ularning tasarrufidagi tibbiyot muassasalari, Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari va ularning filiallari, Respublika darajasidagi tibbiyot muassasalari, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi va uning hududiy boshqarma (bo'lim) larining Hay'at ish faoliyati ustidan rejali va rejadan tashqari monitoring o'tkazadi.

III. Hay'atning huquq va majburiyatlari

9. Hay'atning huquqlari:

Hay'at a'zolari rejali va rejadan tashqari (maqsadli) tekshiruv natijalaridan kelib chiqib, dori vositalari, tibbiy buyumlar, reaktiv, etalon shtammlar va sarflov vositalarini qabul qilish, saqlash, maqsadli ishlatish va ushbu jarayonlarda tibbiy hisob va hisobot hujjatlarini rasmiylashtirishda va muassasa bo'yicha barcha aniqlangan kamchiliklarga yo'l qo'ygan muassasalarning mas'ul va mutasaddi xodimlariga nisbatan intizomiy jazo chorasini qo'llash yuzasidan Sog'liqni saqlash vazirligi Hay'at raisiga taklif kiritadi;

Sog'liqni saqlash vazirligi qoshidagi Hay'at a'zolari tarkibiga o'zgartirish kiritish yoki ro'yxatdan chiqarish yuzasidan Hay'at raisiga asoslangan taklif kiritadi;

Hay'at qabul qilgan qarorlari, taqdim qilgan ma'lumotlarining haqqoniyligiga javob beradi.

10. Hay'atning majburiyatlari:

Hududlardan taqdim etilgan ehtiyojlarni tahlil qilish, jamlash va Hay'at ga tasdiqlashga taqdim etish;

Davlat dasturlari orqali markazlashgan holda xarid qilinadiigan dori vositalari, tibbiy buyumlar, reagentlar, etalon shtammlar va sarflov vositalarini shakllantirishda soha bo'yicha bosh mutaxassislarni jalb qilish va shakllantirilgan ehtiyojni texnik so'rovlari bilan xarid uchun taqdim etish;

taqsimot qilingan dori vositalari, tibbiy buyumlar, reagent va sarflov vositalarini o'z vaqtida o'rnatilgan tartibda olib ketilishini nazorat qilish;

vakolat doirasida taqsimot qilingan dori vositalari, tibbiy buyumlar, reagent va sarflov vositalarini maqsadli ishlatishini nazorat qilish;

hududlarda harakatsiz turgan dori vositalarni, tibbiy buyumlar, reagent va sarflov vositalarini ehtiyoji bo'lgan boshqa hududlarga qayta taqsimot qilishni tashkillashtiradi.

11. Javobgarligi:

Sog'liqni saqlash vazirligining Hay'ati zimmasiga yuklatilgan vazifalar va majburiyatlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun javobgardir.

IV. Dori vositalari, tibbiy buyumlar, reaktiv va sarflov vositalarini taqsimot qilish

12. Sog'liqni saqlash vazirligining Hay'at a'zolari (yo'nalishlar bo'yicha bosh mutaxassislar, konsultantlar) tomonidan davolash-profilaktika muassasalari, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi va uning hududiy boshqarma (bo'lim)lariga ta'minot manbasidan qat'iy nazar, keltirilgan barcha dori vositalari, tibbiy buyumlar, reagentlar, etalon shtammlar va sarflov vositalari taqsimlanadi.

13. Davlat dasturlari bo'yicha markazlashgan holda xarid qilingan dori vositalar, tibbiy buyumlar, reagentlar, etalon shtammlar va sarflov vositalari soha yo'nalishlari bo'yicha bosh mutaxassislar va konsultantlar tomonidan taqsimlanadi va tegishli vazir o'rinbosariga tasdiqlash uchun kiritiladi.

14. Sog'liqni saqlash vazirligi omborxonasidagi mavjud dori vositalari, tibbiy buyumlar, reaktiv va sarflov vositalarini saqlash sharoitlarini, harakatini monitoring qilib boradi, yaroqlilik muddatiga qarab DPMlarning talabiga ko'ra qayta taqsimlaydi.

15. Hay'at tomonidan taqsimot qilingan dori vositalari, tibbiy buyumlar, reaktiv va sarflov vositalarini maqsadli ishlatilishi ustidan doimiy nazorat olib boradi.

V. Muassasalarda dori vositalari, tibbiy buyum, reagent, va sarflov vositalarining saqlanishi va samarali ishlatilishini nazorat qilish

16. Sog'liqni saqlash vazirligining Hay'at raisi va a'zolari tomonidan muassasalarda dori vositalari, tibbiy buyumlar, reagent, etalon shtammlar va sarflov vositalarining saqlanishi va samarali ishlatilishi ustidan doimiy nazorat Hay'at tomonidan rejali va rejadan tashqari tekshiruvlar davrida amalga oshiriladi.

17. Rejali tekshiruvdan oldin Hay'at a'zolaridan mas'ullarni belgilaydi. Mas'ullar tomonidan obyektlar o'rganilib, natijalariga ko'ra savolnoma asosida obyektlarda o'rganish o'tkaziladi Hay'at a'zolari va tekshirilgan obyekt rahbari tomonidan imzolanadi. Tekshiruv dalolatnomalari 2 nusxada tayyorlanadi, ulardan biri DPM da saqlash uchun qoldiriladi.

18. Sog'liqni saqlash vazirligi qoshidagi Hay'at a'zolari tomonidan o'tkazilgan monitoring natijalari Hay'at yig'ilishida muhokama qilinadi.

19. Ayrim sabablarga ko'ra ishlatilmay qolgan va saqlanish yoki foydalanish muddati o'tgan dori vositalari, tibbiy buyumlar, vaksinalar, reagent va sarflov vositalari aniqlangan taqdirda o'rnatilgan tartibda xisobdan chiqarishga taklif kiritadi.

VI. Yakuniy qoidalar

20. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmalari va ularning tasarrufidagi davolash – profilaktika muassasalari, Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari va ularning filiallari, Respublika darajasidagi tibbiyot muassasalari, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi va uning hududiy boshqarma (bo'lim)lari Doimiy faoliyatdagi Hay'ati to'g'risidagi

N I Z O M

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmalari va ularning tasarrufidagi tibbiyot muassasalari, Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari va ularning filiallari, Respublika darajasidagi tibbiyot muassasalari, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi va uning hududiy boshqarma (bo'lim)larida tashkil etiladigan Doimiy faoliyatdagi Hay'at (keyingi o'rinlarda **Hududiy hay'at**) faoliyatini belgilaydi.

2. Hududiy hay'at Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmalari va ularning tasarrufidagi tibbiyot muassasalari, Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari va ularning filiallari, Respublika darajasidagi tibbiyot muassasalari, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi va uning hududiy boshqarma (bo'lim)larida tashkil etiladi va bevosita Davolash-profilaktika muassasalari (keyingi o'rinlarda DPM) rahbarlariga bo'ysunadi.

3. Hududiy hay'at o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlariga, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlariga, boshqa qonun hujjatlariga, shuningdek Sog'liqni saqlash vazirining buyruqlariga hamda mazkur Nizomga muvofiq amalga oshiradi.

4. Hududiy hay'at raisi etib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmalarining Tibbiy yordamni tashkillashtirish bo'yicha birinchi o'rinbosarlari va ularning tasarrufidagi tibbiyot muassasalari, Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari va ularning filiallari, Respublika darajasidagi tibbiyot muassasalar boshliqlarining davolash ishlari bo'yicha o'rinbosarlari;

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi va uning hududiy boshqarma (bo'lim)lari boshliqlarining o'rinbosarlari;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmalari va Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va

jamoat salomatligi qo'mitasi va uning hududiy boshqarmalarida, Hududiy hay'at a'zolari etib, dori vositalari ehtiyojlarini aniqlash bo'yicha bosh mutaxassis (farmatsevti), sohalar bo'yicha viloyat bosh mutaxassislari, bo'lim boshliqlari, bosh hisobchi, raqamli texnologiyalarni muvofiqlashtirish bo'yicha mutaxassislar tayinlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmalari tasarrufidagi barcha DPMLari va Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining hududiy bo'limlarida, Hududiy hay'at a'zolari etib bo'lim boshliqlari, dori-xona mudiri, bosh/katta hamshira, bosh hisobchi, oilaviy poliklinika oilaviy shifokorlik punktlari mudirlari, ixtisoslashtirilgan markazlar va shifoxonalar bosh shifokorlarining davolash ishlari bo'yicha o'rinbosarlari tayinlanadi.

Hududiy hay'at raisi, tashkilot rahbarining buyrug'i bilan tayinlanadi va ozod etiladi.

5. Muassasa rahbari buyrug'iga asosan Hay'at a'zolari tarkibi o'zgartirilishi, hay'atning faoliyati tugatilishi yoki qayta tashkil etilishi mumkin.

Hududiy hay'atning ish rejasi har yili yangilanib, rahbar tomonidan tasdiqlanadi

6. Hududiy hay'atning asosiy, dolzarb qarorlari muassasa rahbarining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

II. Hududiy hay'atning asosiy vazifalari

7. Hududiy hay'at quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

DPMLarga dori vositalari, tibbiy buyumlar, reaktivlar, etalon shtammlar, sarflov vositalari va dezinfeksiyalovchi vositalarga, shu jumladan giyohvandlik vositalari va ularning analoglari, psixotrop moddalar, kuchli ta'sir etuvchi vositalar va prekursorlarga bo'lgan ehtiyojni va ushbu vositalar harakatini DPMdagi kasallik turlari bo'yicha bir bemorga bir kunlik doza, davolash kursining davomiyligi va ushbu dori vositasini qabul qilgan bemorlar soniva shifoxonadagi zahira va kasallanish holatini hisobga olgan holda o'rganadi;

shuningdek, dori vositalarini nojo'ya ta'sirlari to'g'risida ma'lumotlarni qayd etilishi va o'rnatilgan tartibda tegishli tashkilotga axborot berilishi ustidan nazoratni o'rnatadi;

soha bo'yicha bosh mutaxassislarni jalb qilgan holda kasallanish holatini inobatga olib muassasalarning dori vositalari, tibbiy buyumlar, sarflov vositalariga bo'lgan yillik ehtiyojini shakllantiradi;

dori vositalari, tibbiy buyumlar, reaktivlar, etalon shtammlar, sarflov va dezinfeksiyalovchi vositalarga shakllantirilgan ehtiyoj rahbar tomonidan tasdiqlanadi va xarid qilish uchun dalolatnoma (nizomga 1-ilova) asosida xarid komissiyasiga taqdim etadi;

xarid komissiyasi tarkibiga Hududiy hay'at raisi va a'zolaridan 2-3 nafari kiritiladi;

birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida reimbursatsiya dasturiga kiritilgan elektron retsept asosida dori vositalari (har bir bemorga muntazam berilishi) berilishi va elektron ambulator kartalarda asoslanganligi bo'yicha doimiy monitoring olib boradi;

birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida reimbursatsiya dasturiga kiritilgan elektron retsept asosida berilgan dori vositalari uchun dorixonalar sarf-xarajati Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi tomonidan qoplab beriladi.

Ta'minot manbasidan qat'iy nazar olib kelingan dori vositalari, tibbiy buyum, reagent, etalon shtammlar, sarflov va dezinfeksiyalovchi vositalarni uch kishidan iborat Hududiy hay'at a'zolari (dorixona mudiri, buxgalter, bosh hamshira) tomonidan qabul qilinadi va qabul dalolatnomasi rasmiylashtiriladi (nizomga 2-ilova), bunda dori vositalari, tibbiy buyumlar, sarflov vositalarining soni, yaroqlilik muddati, seriyasiga mos kelishi va muvofiqlik sertifikati mavjudligi, dori vositasining qadog'i ko'rinishini saqlanganlik xolatiga alohida e'tibor qaratiladi hamda muassasaga kirim qilinadi.

Muassasa dorixonasida har bir qutiga maxsus muhr (5x2 sm o'lchamda, "muassasa nomi" va "sotish taqiqlanadi" jumlasini tushirilgan bo'lishi shart), bo'limlarga kirim qilingan har bir dori vositalari, tibbiy buyumlar, reaktiv, etalon shtammlar va sarflov vositalariga bo'limning maxsus muhri (4x1 sm o'lchamda, bo'lim nomi va har bir bo'limning tartib bilan shartli raqami bo'lishi shart) qo'yiladi. Muhr qo'yish imkonini mavjud bo'lmagan holatlarda qizil rangdagi qalam (ruchka) bilan bo'lim nomi va **shartli tartib raqami yoziladi.**

Markazlashgan holda taqsimlangan va boshqa manbaalardan kirim qilingan dori vositalari va tibbiy buyumlarning oylik sarfi bo'yicha ma'lumotlarni tibbiy hujjatlar (kasallik tarixi, ambulatoriya kartasi) dan tog'ridan-tog'ri kochirma olib elektron registrga kiritib borish orqali haqiqiy yillik ehtiyojni o'rganish va tayyorlangan ehtiyoj-buyurtmaning umumlashtirilishini nazorat qilinadi.

DPMlarning barcha tarkibiy bo'linmalarini tizimli ravishda tasdiqlangan rejaga (nizomga 3-ilova) muvofiq o'rganadi, bunda tekshirish dalolatnomalari (nizomga 4-ilova) rasmiylashtiriladi;

muruvvat yordami tariqasida berilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va sarflov vositalarining qiymati, pullik va/yoki davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi mablag'lari hisobidan davolangan bemorlarga qo'llanilganida, hisob-kitob jarayonida davolashning **umumiy narx qiymatiga qo'shilmaydi;**

Hududiy hay'at davolash-profilaktika muassasalarida hisob-kitob o'tkazish bo'yicha shifoxona dorixonasi mudiridan sotib olingan dori vositalari haqida har 10 kunda ma'lumot oladi, har oyda dorixonada va bo'limlarda dori vositalarining harakatini nazorat qiladi;

yaroqlilik muddati tugagan dori vositalari, tibbiy buyumlar, sarflov vositalari, reaktivlar, vaksinalar belgilangan tartibda yo'q qilinishini tashkillashtiradi;

giyohvand moddalar, ularning analoglari, psixotrop vositalarni tavsiya qilish, ishlatilishi, ulardan bo'shagan idishlarni va ishlatilmay qolgan dori vositalarini belgilangan tartibda yo'q qilinishini ta'minlaydi;

ambulatoriya sharoitida davolanishdagi shaxslarning ayrim toifalari uchun dori vositalariga imtiyozli retseptlarni rasmiylashtirishni, shifokorlar tomonidan rasmiylashtirilgan elektron retseptlar asosiligi bo'yicha reja asosida monitoring olib boradi

Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmalari va Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi va uning hududiy boshqarmalarida,

Hududiy hay'at raisi va a'zolari tomonidan ta'minot manbasidan qat'iy nazar olib kelingan dori vositalari, tibbiy buyumlar, reagent, etalon shtammlar, sarflov vositalari va dezinfeksiyalovchi vositalarni tasarrufidagi tibbiyot muassasalariga, ularning profili, tibbiy yordam hajmi va turini inobatga olgan holda uch kun muddatda taqsimlaydi va bunda taqsimot dalolatnomalari nizomning 5-ilovasiga muvofiq rasmiylashtiriladi;

DMPlarda, ta'minot manbaidan qat'iy nazar kirim qilingan dori vositalari, tibbiy buyumlar, reagent, sarflov vositalari va dezinfeksiyalovchi vositalarini, tarkibiy bo'linmalarining ehtiyojidan kelib chiqib talabnoma asosida muassasa doriixonasidan bo'limlarga beriladi;

8. Polipragmaziya yo'l qo'ymaslik maqsadida bir bemorga bir vaqtning o'zida besh yoki undan ortiq (reanimatsiya bo'limlarida yetti va undan ortiq) dori vositalari yuborish hamda bir vaqtning o'zida uch va undan ortiq antibiotik tayinlash muvofiq deb topilganda shifokorlar konsiliumi tashkil etilganligi va kasallik tarixida qayd etilishini nazorat qiladi.

Hududiy hay'at o'zining ish rejasiga muvofiq monitoring o'tkazadi va aniqlangan kamchiliklarni Hay'atning xar chorakda o'tkaziladigan yig'ilishida muxokama qilinadi.

9. Taqsimlangan dori vositalari, tibbiy buyumlar, reagent, etalon shtammlar, sarflov vositalari va dezinfeksiyalovchi vositalarni o'rnatilgan tartibda saqlanishini nazorat qiladi.

10. Taqsimlangan dori vositalari muassasalar tomonidan talabnoma asosida olib ketiladi. Bunda Hududiy hay'at ularni manzillariga yetkazish mas'uliyatini olmaydi.

11. Tuman tibbiyot birlashmasi yuk xatiga asosan miqdori, seriyalari ko'rsatilgan holda majburiy raqamli markirovka orqali qabul qilib (majburiy raqamli markirovka joriy qilinmaganlar bundan mustasno), belgilangan tartibda kirim qilinadi va maxsus ajratilgan joyda o'rnatilgan tartibda saqlanadi. qabul qilingan dori vositalari, tibbiy buyumlar, reagentlarni va sarflov vositalarini OSHP, OP, KTMPlar ehtiyojidan kelib chiqib katta hamshira tomonidan belgilangan tartibda olib ketiladi va o'rnatilgan tartibda saqlanadi.

12. Tibbiyot muassasalari va birlashmalarida dori vositalari, tibbiy buyumlar, sarflov vositalari, reagentlar sanitariya qoidalari va normalariga, yo'riqnomada ko'rsatilgan harorat, namlik, fizik va kimyoviy xususiyatlariga qarab saqlanishi uchun shart-sharoitlar yaratib berilishiga tibbiyot muassasalari va birlashmalarining rahbari va Hududiy hay'at raisi javobgar xisoblanadi.

13. DPM larda davolanayotgan (shu jumladan statsionar yoki ambulator sharoitda davolanayotgan) shaxsga nisbatan dori vositasini qo'llash chog'ida yoki dori vositasi qo'llanilgandan keyin unda nojo'ya ta'sirlari kuzatilgan yoki aniqlangan hollarda ushbu holatni kuzatgan yoki aniqlagan davolash-profilaktika muassasasining xodimi bu haqda zudlik bilan davolovchi vrachga xabar beradi. Davolovchi shifokor DPMning Hududiy hay'at raisiga ushbu xolat yuzasidan axborot beradi. DPMning Hududiy hay'at raisi o'rnatilgan tartibga muvofiq, nizomda keltirilgan xabarnoma kartasini to'ldirib, tegishli tashkilotni xabardor qiladi.

14. Hududiy hay'at va DPM raxbarlari dori vositalari bilan aholi salomatligiga zarar yetkazishni oldini olish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining "Reklama

to'g'risida"gi Qonuni hamda Sog'liqni saqlash vazirining 2013-yil 27-dekabrda
"Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi tibbiy muassasalar va tibbiyot xodimlari uchun
mo'ljallangan dori vositalarini reklama qilish va uning nazoratini amalga oshirish
tadbirlari haqida"gi 442-son buyrug'iga muvofiq DPM rahbarlari va Hududiy
hay'at raislari nazorat qiladi.

III. Hududiy hay'atning huquq va majburiyatlari

15. Hududiy hay'atning huquqlari:

rejali va rejadan tashqari tekshiruv natijalaridan kelib chiqib, dori vositalarini qabul
qilish, saqlash, ishlatish va ushbu jarayonlarda tibbiy hisob va hisobot hujjatlarini
rasmiylashtirishda xato va kamchiliklarga yo'l qo'ygan xodimlarga nisbatan intizomiy
jazo chorasini qo'llash yuzasidan muassasa rahbariga taklif kiritadi;

Hududiy hay'at raisi muassasa rahbariga Hududiy hay'at a'zolari tarkibini
o'zgartirish, mutaxassislarning faoliyat natijalaridan kelib chiqib, Hududiy hay'at
tarkibiga kiritish yoki chiqarish yuzasidan asoslangan taklif kiritadi.

16. Hududiy hay'at tomonidan qabul qilingan qarorlar, taqdim qilingan
ma'lumotlarning haqqoniyligiga javob beradi.

17. Hududiy hay'atning majburiyatlari:

DPMlarida taqdim etilgan ehtiyojlarni tahlil qilish, jamlash va rahbar tomonidan
tasdiqlash;

o'zidan yuqori bo'lgan tashkilotga taqdim etish;

taqsimot qilingan dori vositalari, tibbiy buyumlar, reagent, etalon shtammlar va
sarflov vositalarini o'z vaqtida o'rnatilgan tartibda sanitariya qoidalariga muvofiq olib
ketilishini tashkillashtirish;

olib kelingan dori vositalari, tibbiy buyumlar, reagent, etalon shtammlar va sarflov
vositalarini hududiy DPMlariga taqsimot qilish;

tuman tibbiyot birlashmasidan OSHP, OP, KTMP katta hamshirasi tomonidan
taqsimlangan dori vositalari, tibbiy buyumlar, sarflov vositalari, etalon
shtammlar, reagentlarni ehtiyojidan kelib chiqib, yuk xatiga asosan olib ketish;

taqsimot qilingan dori vositalari, tibbiy buyumlar, reagent, etalon shtammlar va
sarflov vositalarini yo'riqnomada ko'rsatilgan harorat, namlik, fizik va kimyoviy
xususiyatlariga qarab saqlanishi uchun shart-sharoitlar yaratib berilishni
tashkillashtirish;

vakolat doirasida taqsimot qilingan dori vositalari, tibbiy buyumlar, reagent
va sarflov vositalarini maqsadli va manzili ishlatishi nazorat qilish;

DPMlarda bemorga nisbatan dori vositasini qo'llash chog'ida yoki dori vositasi
qo'llanilgandan keyin unda nojo'ya ta'sirlar kuzatilgan yoki aniqlangan hollarda
Hududiy hay'at raisi ushbu holat yuzasidan o'rnatilgan tartibga muvofiq tegishli
tashkilotni xabardor qilish;

DPMlarda xarakatsiz turgan dori vositalarni, tibbiy buyumlar, reagent va sarflov
vositalarini ehtiyoji mavjud bo'lgan DPMlariga qayta taqsimot qilishni tashkillashtiradi.

IV. Dori vositalari, tibbiy buyumlar va reagentlar, sarflov va dezinfeksiyalovchi vositalarni xarid va qabul qilish mezonlari

18. Hududiy hay'at dori vositalari, tibbiy buyumlar, reagentlar, sarflov vositalari va dezinfeksiyalovchi vositalarni xarid qilishga taklif berishda quyidagi mezonlarga amal qiladi:

DPM bo'limlari, KTMP, OP, OSHPlar tomonidan dori vositalari, tibbiy buyumlar, reagentlar, sarflov vositalari va dezinfeksiyalovchi vositalariga taqdim qilingan oylik ehtiyojdan kelib chiqib xarid amalga oshiriladi;

dori vositalari, tibbiy buyumlar, reagentlar, sarflov vositalari va dezinfeksiyalovchi vositalarni faqat farmatsevtik faoliyat bilan shug'ullanishga (sotib olish va sotishga) ruxsat beruvchi litsenziyasi mavjud bo'lgan ta'minotchilardan xarid qilinishini;

xarid qilinayotgan dori vositalari, tibbiy buyumlar, reagentlar, etalon shtammlar, sarflov vositalari va dezinfeksiyalovchi vositalarni, vakolatli sertifikatli organlari tomonidan rasmiylashtirilgan va o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan muvofiqlik sertifikati nusxasi mavjud bo'lishini;

mahsulotda birlamchi va ikkilamchi o'ramlarning butunligi, qayd yozuvlarining bir-biriga mos kelishi, yorliqda mahsulotning nomi, xalqaro patentlanmagan nomlanishiga va dozasiga muvofiq bo'lishi, o'lchov birligi, seriyasi va partiya raqami, qaysi davlat va firmada ishlab chiqarilganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjudligini;

muruvvat yordami yoki xomiylar tomonidan beg'araz beriladigan dori vositalari, tibbiy buyumlar, reagentlar, etalon shtammlar, sarflov vositalari va dezinfeksiyalovchi vositalarni olinadigan miqdoriga qarab yaroqlilik muddatlari aniq ko'rsatilishi shart (yaroqlilik muddati 6 oydan kam bo'lmasligi lozim);

dori vositalarga tuzilayotgan ehtiyoj va buyurtma dori vositalarining xalqaro patentlanmagan nomlanishiga va dozasiga muvofiq bo'lishi;

dori vositalarining samaradorligi, xavfsizligi, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi;

muruvvat yordami yuklari o'rnatilgan tartibga ko'ra dalolatnoma asosida qabul qilinishi;

V. Dori vositalari va tibbiy buyumlarni taqsimot qilish

19. Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmalari va Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi va uning hududiy boshqarmalarida ta'minot manbasidan qat'iy nazar olib kelingan dori vositalari, tibbiy buyumlar, reagentlar, etalon shtammlar, sarflov vositalari va dezinfeksiyalovchi vositalari, Hududiy hay'at tomonidan qabul qilinadi va muassasalarga dalolatnoma asosida taqsimlanadi.

20. DPMLariga ta'minot manbasidan qat'iy nazar kirim qilingan dori vositalari, tibbiy buyumlar, reagentlar, etalon shtammlar, sarflov vositalari va dezinfeksiyalovchi vositalarni Hududiy hay'at a'zolaridan dorixona mudiri, bosh/katta xamshira va xisobchidan iborat uch kishilik komissiya ishtirokida qabul dalolatnomasi (nizomga 2-ilova) tuziladi.

21. DPM larida dori vositalari, tibbiy buyumlar, reagentlar, etalon shtammlar, sarflov vositalari va dezinfeksiyalovchi vositalari qabul dalolatnomasini ilova qilgan holda dorixona mudiri tomonidan Hududiy hay'at raisiga ikki kun muddatda bildirishnoma kiritiladi va Hududiy hay'at yig'ilish bayonnomasida talabnoma asosida dorixonadan tarkibiy bo'linmalarga olib ketilishi to'g'risida qaror qabul qiladi (elektron tizim yo'lga qo'yil muassasalarda xujjatlashtirish avtomatik tarzda amalga oshiriladi).

Tarkibiy bo'linma katta hamshirasida, dori vositalari, tibbiy buyumlar, reagentlar, sarflov vositalari va dezinfeksiyalovchi vositalarning kamida yetti kunlik zahirasi shakllantiriladi, katta hamshira tomonidan muolaja

va bog'lov xonasi hamda kunduzgi shifoxona uchun kunlik ehtiyoj berib boriladi.

22. Hududiy hay'at rasi va a'zolari ishtirokida muassasaga dalolatnoma asosida qabul qilingan dori vositalari, tibbiy buyumlar, reagentlar, etalon shtammlar, sarflov vositalari va dezinfeksiyalovchi vositalarining haqiqiy va axborot tizimidagi (kitobiy) qoldig'i taqqoslanadi.

23. Hududiy hay'at a'zolari tomonidan mazkur qabul qilingan dori vositalari, tibbiy buyumlar, reagentlar, etalon shtammlar, sarflov vositalari va dezinfeksiyalovchi vositalarini, oylik ehtiyojini taqdim qilmagan tarkibiy tuzilmalarga taqsimot qilinmaydi hamda tarkibiy bo'linmada xisobot kunidagi qoldig'i inobatga olingan holda taqsimlanadi.

24. Dori vositalari, tibbiy buyumlar, reagentlar, etalon shtammlar sarflov vositalari va dezinfeksiyalovchi vositalari, birinchi navbatda, quyidagi bo'limlarga taqsimlanadi:

shoshilinch qabul bo'limlari;

reanimatsiya bo'limlari;

ijtimoiy ahamiyatli kasalliklarga chalingan bemorlar davolanayotgan bo'limlar;

neonatal va bolalar bo'limlari, tug'uruq bo'limlari.

25. Yuritilgan barcha hujjatlar 2 ta nusxada rasmiylashtiriladi va dorixona mudiri hamda Hududiy hay'at raisida saqlanadi.

26. Ehtiyojdan ortiq bo'lgan dori vositalari, tibbiy buyumlar, reagentlar, sarflov vositalari va dezinfeksiyalovchi vositalari boshqa davolash-profilaktika muassasalariga qayta taqsimot uchun yuqori tashkilotlarga ma'lumot tayyorlanadi.

VI. Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalasi bilan bog'liq faoliyat yuritilishi bo'yicha doimiy nazorat o'rnatish

27. Giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni, ularning analoglarini va prekursorlarni saqlashga doir texnik talablarga muvofiqligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-avgustdagi "Qurol to'g'risidagi qonunchilik hamda litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi 444-sonli qarori asosida, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar va prekursorlarni saqlash, berish, sotish, taqsimlash va hisobga olish Sog'liqni saqlash vazirining "Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop, kuchli ta'sir etuvchi moddalar va prekursorlarni saqlash, berish, sotish, taqsimlash va

hisobga olish shartlari to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 2001yil 28-noyabrdagi 527-son buyrug'i (ro'yxat raqami 1090, 2001-yil 29-dekabr va 1090-1, 2014-yil 23-aprel) asosida amalga oshiriladi.

Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 29-oktyabr «O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lish tartibini belgilab beruvchi nizomlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 472-son Qarorining 1-ilovasidagi "O'zbekiston Respublikasining giyohvandlik vositalari ularning analoglari, psixotrop moddalar, kuchli ta'sir etuvchi moddalar va prekursorlarga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash tartibi to'g'risida"gi Nizomiga ko'ra har bir davolash-profilaktika muassasalarining Hududiy hay'at a'zolari tarkibiy tuzilma boshliqlari ishtirokida muassasaning giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar, kuchli ta'sir etuvchi moddalar va prekursorlarga yillik ehtiyojini shakllantiriladi.

Mazkur ehtiyoj tuman/shahar tibbiyot birlashmasi Hududiy hay'at raisi tomonidan jamlab tegishliligi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalariga taqdim etiladi va o'z navbatida ular tomonidan "Farmatsevtik mahsulotlar xavfsizligi markazi" davlat muassasasining Narkotiklarni nazorat qilish qo'mitasiga keyingi yil uchun joriy yilning 1-iyun oyiga qadar taqdim qiladi va Sog'liqni saqlash vaziri tomonidan tasdiqlanadi.

28. Barcha davolash-profilaktika muassasalarning Hududiy hay'atlar ehtiyojni shakllantiradi, Hududiy hay'at a'zolari imzo qo'yadi va muassasa (markaz, birlashma, boshqarma va) rahbari tomonidan imzosi va muhri bilan tasdiqlanadi. Ehtiyojning to'g'ri va aniq hisoblanganligiga rahbar bilan birgalikda Hududiy hay'at raisi javobgar hisoblanadi.

29. DPMLarida giyohvandlik vositalari, ularning analoglari psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalasi bilan bog'liq faoliyat yuritilishi Qonun hujjatlarida belgilangan tartib bo'yicha amalga oshiriladi.

30. DPMLarida giyohvandlik vositalari, ularning analoglari psixotrop moddalar va prekursorlarning ishlatilish bo'yicha hisobotlar belgilangan muddatda "Farmatsevtik mahsulotlar xavfsizligi Markazi" davlat muassasasining Narkotiklarni nazorat qilish qo'mitasiga belgilangan tartibda muassasaning Hududiy hay'at raisi yoki ma'sul shaxs tomonidan taqdim etiladi.

VII. Muassasalarda dori vositalari, reaktiv, tibbiy buyum va sarflov vositalarini saqlanishi va samarali ishlatilishi nazorati

31. Muassasalarda dori vositalari, tibbiy buyumlar, reagentlar, sarflov vositalari qabul qilish, saqlanishi, tamlanishi va samarali ishlatilishi ustidan nazorat Hududiy hay'at tomonidan rejali va rejadan tashqari tekshiruvlar davrida amalga oshiriladi.

32. Hududiy hay'at a'zolari tomonidan joriy yil uchun vertikal bo'yicha:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmalari va ularning tasarrufidagi tibbiyot muassasalari, Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari va ularning filiallari, Respublika darajasidagi tibbiyot muassasalari, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi va uning hududiy boshqarma (bo'lim)lari tasarrufidagi tarkibiy tuzilmalarida dori vositalari, tibbiy buyumlar, reagentlar, sarflov vositalari va

dezinfeksiyalovchi vositalarining saqlanishi va samarali ishlatilishi holatini tekshirish uchun yillik reja tuziladi, bunda har bir obyektни har chorakda bir marta tekshirilishini inobatga olish zarur. Tekshiruvlar Hududiy hay'atning rejasiga ko'ra har oyning 15-25-kunlari o'tkaziladi. Hududiy hay'atning ish rejasi a'zolari tomonidan tuziladi, rahbar imzosi va muassasa muhri bilan tasdiqlanadi.

33. Har oy tekshiruvdan oldin Hududiy hay'at raisi a'zolarini to'playdi va bu oyda tekshiriladigan muassasalarga Hududiy hay'at a'zolaridan mas'ullarni belgilaydi. Mas'ullar tomonidan muassasalar o'rganilib, natijalar ilovada keltirilgan tekshiruv dalolatnomasiga rasmiylashtiriladi. Dalolatnoma o'rganishni o'tkazgan Hududiy hay'at a'zolari va tekshirilgan obyekt rahbari tomonidan imzolaniadi. Tekshiruv dalolatnomalari 2 nusxada tayyorlanadi, ulardan biri obyektда saqlash uchun qoldiriladi.

34. Hududiy hay'atning navbatdagi yig'ilishida (har oyning 25-30 sanasida) barcha a'zolar to'planib, tekshiruv natijalari yuzasidan hisobot beriladi va dalolatnomalar taqdim qilinadi. Dalolatnomalar asosida Hududiy hay'atning qarori tayyorlanadi. Mazkur qarorda xodimlarga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llanishi takliflari kiritish zaruriyati bo'lgan holatlarda Hududiy hay'at qarori nusxasi bildirishnoma bilan birgalikda muassasa rahbariga taqdim qilinadi. Muassasa rahbari tomonidan intizomiy jazo chorasi to'g'risidagi buyruq nusxasi tegishli qaror bilan birgalikda saqlanadi.

35. Hududiy hay'atning tekshirish dalolatnomalari, Hududiy hay'at qarorlari va muassasa rahbarining tegishli buyruqlari tartib bilan oyma-oy tikiladi va 5 yil muddatda saqlanadi.

36. Tizimdagi barcha tibbiyot muassasalarida elektron tizim joriy qilingandan so'ng dori vositalari, tibbiy buyumlar, etalon shtammlar, sarflov va dizinfeksiyalovchi vositalari uchun ehtiyojni shakllantirish, kirim qilish, taqsimot qilish, zahira va qoldiqlarining hisobini yuritish elektron tizim orqali amalga oshiriladi.

VIII. Yakuniy qoida

37. Ushbu Nizom qoidalarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Sog'liqni saqlash vazirligi
tizimidagi davolash-profilaktika
muassasalari, Davlat sanitariya-
epidemiologik osoyishtalik va
jamoat salomatligi qo'mitasi Doimiy
Faoliyatdagi Hay'at to'g'risidagi
Nizomga 1-ilova

“ kun” __oy__yil

“Tasdiqlayman”

____ F.I.Sh

Sana _____

Muhr _____

Doimiy faoliyatdagi hay'atning xarid qilish uchun tavsiya dalolatnomasi

t/r	Xarid qilinadigan dori vositalari, tibbiy buyumlar, reaktiv, sarflov vositalari nomi	O'lchov birligi	DPMsiga xarid uchun ehtiyoj
1			
2			
3			
4			
5			
6			

DFH raisi: _____ (F.I.Sh., imzo)

DFH a'zolari:

_____ (F.I.Sh., imzo)
_____ (F.I.Sh., imzo)
_____ (F.I.Sh., imzo)
_____ (F.I.Sh., imzo)
_____ (F.I.Sh., imzo)
_____ (F.I.Sh., imzo)

Sog'liqni saqlash vazirligi
tizimidagi davolash-profilaktika
muassasalari, Davlat sanitariya-
epidemiologik osoyishtalik va
jamoat salomatligi qo'mitasi
Doimiy Faoliyatdagi Hay'at
to'g'risidagi Nizomga 2-ilova
"kun" __oy__yil

Doimiy Faoliyatdagi Hay'atning qabul qilish dalolatnomasi

t/r	Qabul qilinayotgan dori vositalari, tibbiy buyumlar, reaktiv, sarflor vositalari nomi	o'lchov birligi	soni	miqdori	o'ramning holati	seriyasi	Yaroqlilik muddati
1							
2							
3							
4							
5							
6							
7							

DFH a'zolari:

dorixona mudiri _____ (F.I.Sh., imzo)

buxgalter _____ (F.I.Sh., imzo)

bosh hamshira _____ (F.I.Sh., imzo)

Doimiy Faoliyatdagi Hay'atning DPM (bo'lim, tarkibiy tuzilma)larni tekshirish rejasi

[illegible]

Doimiy Faoliyatdagi Hayʼatning tekshirish dalolatnomasi

“kun” __oy____yil

Tekshiriladigan obyekt nomi _____

Tekshiruv natijalari:

1. Mavjud dori vositalari, reaktiv, tibbiy buyum, tibbiy texnika va sarflov vositalari:

Dori vositalari, reaktiv, tibbiy buyum, tibbiy texnika va sarflov vositalari nomi	Haqiqiy qoldiq	Kitobiy qoldiq

2. Muddati oʻtgan dori vositalari, reaktiv, tibbiy buyum, tibbiy texnika va sarflov vositalari:

Dori vositalari, reaktiv, tibbiy buyum va sarflov vositalari nomi	Oʻlchov birligi	Soni

3. Harakatsiz dori vositalari, reaktiv, tibbiy buyum, tibbiy texnika va sarflov vositalari:

Dori vositalari, reaktiv, tibbiy buyum, tibbiy texnika va sarflov vositalari nomi	Oʻlchov birligi	Soni	Oxirgi ishlatilgan sana

4. Dori vositalari, reaktiv, tibbiy buyum, tibbiy texnika va sarflov vositalari saqlanishining buzilish holatlari

5. Dori vositalari, reaktiv, tibbiy buyum, tibbiy texnika va sarflov vositalari ishlatilishining rasmiylashtirilishi, tibbiy hisob va hisobot hujjatlarining yuritilishi holati:

6. Ambulator karta va kasallik tarixlarida bemorlarga buyurilgan dori vositalarini asosliligi: _____

7. Taklif: kimga qanday chora ko'rish zarur

DFH raisi: _____ (F.I.Sh., imzo)

DFH a'zolari:

_____ (F.I.Sh., imzo)

_____ (F.I.Sh., imzo)

_____ (F.I.Sh., imzo)

_____ (F.I.Sh., imzo)

_____ (F.I.Sh., imzo)

_____ (F.I.Sh., imzo)

Sog'liqni saqlash vazirligi
tizimidagi davolash-profilaktika
muassasalari, Davlat sanitariya-
epidemiologiya osoyishtalik va
jamoat salomatligi qo'mitasi
Doimiy Faoliyatdagi Hay'at
to'g'risidagi Nizomga 5-ilova

"Taqsimlansin"	
Rahbar	F.I.Sh
Sana, muhr	

"kun" __oy__yil

Doimiy Faoliyatdagi Hay'atning taqsimot dalolatnomasi

Taqsimlanadigan dori vositalari, reaktiv, tibbiy buyum va sarflov vositalarining nomi,
o'lchov birligi, soni, miqdori

Qaror: qaysi dori vositalari, reaktiv, tibbiy buyum va sarflov vositalari qaysi DPM
(bo'lim yoki tarkibiy tuzilmaga) taqsimlandi:

(dori nomi) _____ (o'lchov birligi va soni) _____ (taqsimlanadigan bo'lim) _____

(dori nomi) _____ (o'lchov birligi va soni) _____ (taqsimlanadigan bo'lim) _____

(dori nomi) _____ (o'lchov birligi va soni) _____ (taqsimlanadigan bo'lim) _____

(dori nomi) _____ (o'lchov birligi va soni) _____ (taqsimlanadigan bo'lim) _____

(dori nomi) _____ (o'lchov birligi va soni) _____ (taqsimlanadigan bo'lim) _____

DFH raisi: _____ (F.I.Sh., imzo)

DFH a'zolari:

**DAVOLASH-PROFILAKTIKA MUASSASALARINING DOIMIIY FAOLIYATDAGI HAY'AT
RAISLARIGA ESLATMA**

**Dori preparatini qo'llanilishi chog'ida nojo'ya reaksiya aniqlangan holat to'g'risidagi xabarnoma
kartasi**

Xabarnoma shakli: ☐ spontan ☐ adabiyot ma'lumotlari ☐ klinik tadqiqotlar vaqtida kuzatilgan NR ☐ marketingdan keyingi kuzatuvlarlar							
Dori vositasining nojo'ya reaksiyasini kuzatgan yoki aniqlagan shaxs: F.I.Sh: _____; lavozmi: _____ Ish joyi: _____ Telefon: _____ Email: _____ ☐ shifokor ☐ farmasevt ☐ boshqa soha mutaxassisi ☐ bemor ☐ boshqa sog'liqni saqlash tizimi							
Dori vositasining nojo'ya reaksiyasi kuzatgan shaxs haqidagi ma'lumotlar: Bemor (F.I.Sh) bosh harflari (Bemorning kodi) _____ Ambulator karta yoki kasallik tarixi raqami: _____ Jinsi: ☐ Erkak ☐ Ayol Tug'ilgan vaqti: " ____ " ____ yil Tana vazni (kg): _____ Bo'yi: _____ Homiladorligi: ☐ homiladorlik muddati ____ hafta Allergiyaning mavjudligi: ☐ yo'q ☐ ha Allergiya haqida ma'lumot: _____ Davolanish: ☐ ambulator ☐ stasionar ☐ o'z-o'zini davolash							
Qo'llanilishi chog'ida gumon qilinayotgan dori preparatini nojo'ya reaksiyahaqida ma'lumotlar:							
T/r	Savdo nomi, XPN	Ishlab chiqaruvchi si	Seriya, yaroqlilik muddati	Dori vositasining qo'llanilgan dozasi, qo'llash usuli	Davolanish boshlangan sana	Davolanish tugagan sana	Qo'llanilshi
.							
..							
Dori vositasining qo'llanilishi bo'yicha ko'rsatmalar: _____ _____ _____ _____ _____							
Nojo'ya reaksiya to'g'risida qisqacha ma'lumot:: _____ _____ _____ _____					Nojo'ya reaksiya boshlangan sana _____ 20 ____ yil.		

Nojo'ya reaksiya haqida to'liq ma'lumot (laborotoriya va instumental ko'rsatkichlar):

Nojo'ya reaksiyaning jiddiylilik mezonini (qo'llanilsa):

☐ O'lim
☐ Hayotga xavf
☐ Kasalxonaga yotqizish yoki uni uzaytirish
☐ Nogirlik

☐ Tug'ma anomaliyalar
☐ Klinik ahamiyatli hodisa
☐ Qo'llab bo'lmaydi

Nojo'ya reaksiyani oldini olish bo'yicha ko'rilgan choralar:

☐ Davolashsiz
☐ Gumon qilinayotgan dori preparatini bekor qilish
☐ dori preparatini dozasini kamaytirish
☐ Dori preparatlari bilan davolash
☐ Dori preparatlarsiz davolash (shu jumladan jarrohlik aralashuvi)

Natija:

☐ holatning yomonlashishi
☐ tug'ma nuqsonlar
☐ kasallikning tuzalishi
☐ shifoxonaga yotqizilishi
☐ noma'lum

☐ holatning yaxshilanishi
☐ O'lim

☐ holatning o'zgarishsizligi
☐ asoratlar bilan sog'ayish ()

Dori preparatining bekor qilinganidan keyin nojo'ya reaksiyaning yo'qolishi kuzatilganmi?

☐ ha
☐ yo'q
☐ dori vositasi bekor qilinmagan
☐ qo'llanilmaydi

Dori preparati takroran qabul qilinganmi?

☐ ha
Natija

☐ yo'q
☐ Qo'llab bo'lmaydi

Oxirgi 3 oy davomida qabul qilingan boshqa dorilar, shu jumladan bemor tomonidan mustaqil ravishda qabul qilingan dorilar (o'z hohishiga binoan)

T/r	Savdo nomi, XPN	Ishlab chiqaruvchi	Seriyasi, yaroqlilik muddati	Dori vositasining qo'llanilgan dozasi, qo'llash usuli	Davolani sh boshlang an sana	Davolanish tugagan sana	Qo'llanilishi
.							
.							
.							
.							

Muhim qo'shimcha ma'lumot:

Agar mavjud bo'lsa va nojo'ya reaksiyalar bilan bog'liq bo'lsa klinik, laboratoriya, rentgenologik tadqiqotlar va otopsiya ma'lumotlari, shu jumladan qonda (to'qimalarda) dorilarning kontsentrasiyasini aniqlash (sanani ko'rsating):

Anamnestik ma'lumotlar:

Shubha qilinayotgan dorilarning o'zaro

ta'sirlari: _____

Tug'ma anomaliyalar uchun homiladorlik davrida qabul qilingan barcha boshqa dori-darmonlarni sanab o'ting va oxirgi hayz sanasini

ko'rsating: _____

Qo'shimcha sahifalar

(qo'llanilsa): _____

Nojo'ya reaksiyaning rivojlanishi bilan dori preparati orasidagi sabab-oqibat bog'liqligi ☐ aniq ☐ ehtimol
☐ bo'lishi mumkin ☐ shubhali ☐ tasniflanmaydi

Xabarnomani rasmiylashtirgan shaxsning imzosi _____

----- (qirqish chizig'i) -----

Nojo'ya reaksiya xaqidagi xabariniqabul qilgan shaxsxaqida ma'lumotlar:

F.I.SH: _____; Lavozmi: _____

Tashkilot manzili: _____; Telefon _____

Mal'umot qabul qilingan sana: "____" _____ 20__ yil Xabarni qabul qilgan shaxsning imzosi: _____

Izoh: mazkur xabarnoma davolash-profilaktika muassasasining shifokori tomonidan to'liq to'ldiriladi, dorixonalar hamda dori vositalarini ishlab chiqaruvchi, realizatsiya qiluvchi tashkilotlar va dori vositalarini qo'llovchi boshqa tashkilotlar tomonidan esa, mavjud ma'lumotlar asosida to'ldiriladi.

**O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi qoshidagi
Doimiy Faoliyatdagi Hay'at tarkibi**

No	RAYOSAT	
1	Sultanov D.T.	Vazirning birinchi o'rinbosari v.b. — rais
2	Tashpulatov F.M.	Vazir o'rinbosari — rais o'rinbosari
3	Xolmatov E.R.	O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasining Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurash departamenti Ijtimoiy sohada korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi boshlig'i
4		kotib (a)
A'ZOLAR		
5	Gaziyeva U.A.	Tibbiy yordamini tashkillashtirish Departamenti boshlig'i v.b
6	Fazilova F.A.	Onalik va bolalikni muhofaza qilish bosh boshqarmasi boshlig'i
7	Safarov O.	SSVning Iqtisodiyot va moliyalashtirish boshqarmasi boshlig'i
8	Xudayberdiyev X.I.	Dori vositalarining ehtiyojini aniqlash bo'limi boshlig'i v.b
9	Ibragimov N.K.	SSVning bosh anesteziolog-reanimatori
10	Fozilov X.G'.	SSVning bosh kardiologi
11	Nadixanova N.S.	SSVning bosh akusher-ginekologi
12	Parpiyeva N.N.	SSVning bosh ftiziatr
13	Liverko I.V.	SSVning bosh pulmonologi
14	Rajabov X.S.	Pulmonologiya xizmati bo'yicha konsultant
15	Karimov M.M.	SSVning bosh gastroenterologi
16	Maxamadaliyeva G.Z.	SSVning bosh gematologi
17	Aripova N.B.	SSVning bosh bolalar gematologi
18	Ismailov S.I.	Xirurgiya xizmati bo'yicha bosh mutaxassis
19	Akbarov M.M.	Umumiy xirurgiya xizmati bo'yicha konsultant
20	Abdusamatov B.Z.	Bolalar xirurgiya xizmati bosh mutaxassis
21	Xolmatova K.Sh.	SSVning bosh infeksiyoti
22	Mirzayev U.X.	Yuqumli kasalliklar xizmati bo'yicha konsultant
23	Xudayqulova G.K.	SSVning bolalar bosh infeksiyoti
24	Tillashayxov M.N.	SSVning bosh onkologi
25	Kamyshov S.V.	SSVning ximioterapiya xizmati bo'yicha konsultant
26	Islamov X.J.	SSVning bosh onkologi konsultanti
27	Miraxmedova X.T.	Revmatologiya xizmati bo'yicha konsultant
28	Tulyaganov D.B.	Shoshilinch tibbiy yordam xizmati bo'yicha bosh mutaxassis
29	Muxamedova B.F.	Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy Markazi bosh shifokori
30	Aliqulov I.T.	Terapiya xizmati bo'yicha konsultant
31	Ahmedova D.I.	SSVning bosh pediatri

32	Asadullayev U.M.	SSVning neyroxirurgiya bo'yicha bosh mutaxassisi
33	Nosirova U.F.	SSVning bosh neanotologi
34	Raziqova I.S.	SSVning bosh allergologi
35	Muxtarov Sh.T.	SSVning bosh urologi
36	Faxrutdinova S.S.	SSVning bosh Endokrinologi
37	Sultanova Sh.T.	SSVning bolalarr endokrinologiya xizmati bo'yicha bosh mutaxassisi
38	Ashurov Z.Sh.	SSVning bosh psixiatri
39	Chimbayev B.R.	Psixiatriya xizmati bo'yicha konsultant
40	Majidova Yo.N.	SSVning bosh nevropatologi
41	Saidazizova Sh.X.	Bolalar nevrologiya xizmati bo'yicha konsultant
42	Irismetov M.E.	SSVning travmatologiya va ortopediya xizmati bo'yicha bosh mutaxassis
43	Valiyev E.Yu.	SSVning travmatologiya va ortopediya bo'yicha konsultanti
44	Ergashev U.M.	SSVning bosh otolaringologi
45	Sabirova F.B.	Bolalar revmatologiya xizmati bo'yicha konsultant
46	Shamsiyev F.M.	Bolalar pulmonologiya xizmati bo'yicha konsultant
47	Aripov A.N.	Laboratoriya xizmati bo'yicha bosh mutaxassis
48	Saidov A.B.	Transfuziologiya xizmati bo'yicha bosh mutaxassis
49	Chuprova V.A.	SSVning transfuziologiya xizmati bo'yicha bosh mutaxassisi
50	Matkarimov Z.T.	SSVning bosh transplantologi
51	Axmedov A.R.	Buyrak transplantologiyasi bo'yicha konsultant
52	Fayziyev B.R.	SSVning Stomatologiya xizmati bo'yicha bosh mutaxassis
53	Raxmatov A.B.	Dermatovenerologiya xizmati bo'yicha bosh mutaxassis
54	Sabirov M.A.	SSVning Nefrologiya xizmati bo'yicha bosh mutaxassis
55	Xamzayev K.A.	Bolalar nefrologiyasi va gemodializ xizmati bo'yicha konsultant
56	Xoliqov A.Yu.	SSVning gemodializ xizmati bo'yicha bosh mutaxassis
57	Azizov S.Q.	Gemodializ xizmati bo'yicha konsultant
58	Salixodjayeva R.K.	Hamshiralik ishi bo'yicha bosh mutaxassis
59	Mavlyanova D.A.	Umumiy amaliyot shifokorligi bo'yicha konsultant
60	Atabekov N.S.	SSVning bosh epidemiologi
61	Tursunova D.A.	Immunoprofilaktika xizmati bo'yicha bosh mutaxassis
62	Tyo I.L.	SSVning bosh parazitologi
63	Djurayev A.	SSV yuridik bo'lim boshlig'i

Izoh:

1. Mazkur ro'yxat bilan tasdiqlangan hay'at tarkibidagi shaxslar boshqa ishga o'tgat taqdirda, uning o'rniga tayinlangan shaxs xay'at a'zosi hisoblanadi.

2. Zarurat tug'ilganda hay'at tarkibiga kerakli mutaxassislar jalb qilinadi.